

HURMATLI HAMKASBLAR, KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “... xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz” – deb ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, ommaviy kommunikatsiya hozirgi zamon lisoniy jarayonlarning markazidan joy olgan yangicha borliqdir. U milliy tilning hozirgi zamondagi modeli hisoblanib, unda adabiy va noadabiy sohalar doimiy o‘zaro ta’sirlashuv holatida bo‘ladi. Bunday sharoitlarda ommaviy kommunikatsiya turli til vositalarining o‘zaro bir-biri bilan ta’sirlashishiga imkon beruvchi o‘ziga xos poligonga aylanadi, deb ham bermalol aytish mumkin.

Hozirgi vaqtda kommunikatsiya texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi natijasida amalga oshayotgan mediamakon transformatsiyasi olim va amaliyotchilarning mediasoha va ommaviy kommunikatsiyalarni, axborot makonini zamonaviy madaniyat kontekstida tadqiq qilishga murojaatini dolzarblashtiradi. Har qanday mediamakon ushbu mediamatn uchun kommunikativ fon hisoblanadi va ma’nolarning bir xil emasligi va xabarning o‘quvchilar tomonidan talqin qilinishi diapazonini ta’minlaydi va axborot kontinuumining bir qismini tashkil etadi.

Jurnalist yozish san’atini, mazkur san’at namunalarini, nazariyasini sinchiklab o‘rganib, o‘z fikr va niyatlarini matnlariga tatbiq etib butun hayoti davomida o‘rganib boradi. Shu bilan birga har bir jurnalistning faoliyatida boshqa mualliflar tomonidan bitilgan turli materiallar bilan ishlash, ya’ni muharrirlik ishi ham asosiy o‘rin egallaydi.

Jurnalistika ta'limi sohasida muharrirlar turli janrdagi materiallarni tarjima va tahrir qilishda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni hal etish uchun javob izlab mantiq ilmiga murojaat qilmoqdalar. Shubhasiz, individual ishlash metodikalari ko'p narsalarga o'rgatishi, eslatishi mumkin, lekin shuni ham unutmaslik kerakki, tahrir ijodiy mehnat bo'lgani bois, u har doim betakrordir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, na amaliy uslubiyat, na adabiy tahrir muharrirning til va uslub bo'yicha ishi qanday tashkil etilsa, yuqorida qayd etilgan xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmaydi, degan savolga to'liq javobni berish amri mahol.

Mediamakonda til, tahrir va tarjima muammolari har qachon dolzarb muammolar qatorida bo'lib kelgan. Mediamatnlarni tarjimasi va tahriri ijodiy jarayon, bu muxarrirdan nutqiy mahorat va adabiy til meyorlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Adabiy tahrir – maqsadi va tabiatiga ko'ra boshqa amaliy filologik bilimlar sohasi qatoridan o'rin olgan yosh amaliy fanlardan hisoblanadi. U ham mazkur sohaga oid boshqa fanlar kabi an'anaviy tarzda, ya'ni matn bilan xususiy usullar orqali konkret vaziyat va amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq tarzda ishlash, mazkur ishlash usullarini tizimlashtirish va ilmiy anglash asosida shakllanib kelgan. Shu nuqtai nazardan bo'lajak jurnalist kadrlarni media tili, tarjima va tahrir mahoratini egallashlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

“Mediamakonda til, tahrir va tarjima muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruzachi, mehmon va maqola muallifi sifatida faol ishtirok etganingiz uchun samimiy minnatdorligimizni izhor etamiz va barchangizga yurtimiz ilm-fani taraqqiyoti yo'lida ulkan yutuqlarga erishishingizni tilaymiz!

**O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektori
ILXOMJON TUXTASINOV**